

**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI PhD.05/04.03.2022.Qx.13.03 RAQAMLI ILMIY
KENGASH ASOSIDA BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

«O‘ZDAVYERLOYIHA» DAVLAT ILMIY-LOYIHALASH INSTITUTI

NORQULOV MUSURMON NORBAYIVICH

**TOG‘ VA TOG‘OLDI YAYLOVLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH
YO‘LLARINI ISHLAB CHIQISH
(Qashqadaryo viloyati misolida)**

06.01.10-«Yer tuzish, kadastr va yer monitoringi»

**QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent-2023

**Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa (PhD) doktori dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по сельскохозяйственным наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on agricultural sciences**

Norqulov Musurmon Norbayivich

Tog‘ va tog‘oldi yaylovlaridan samarali foydalanish yo‘llarini ishlab chiqish
(Qashqadaryo viloyati misolida) 3

Норкулов Мусурмон Норбайивич

Разработка путей эффективного использования горных и предгорных
пастбищ (на примере Кашкадарьинской области)..... 21

Norqulov Musurmon Norbayivich

Development of ways of efficient use of mountain and foothill pastures (in the
example of Kashkadarya region)..... 41

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of published works 45

**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI**

**PhD.05/04.03.2022.Qx.13.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDA BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

«O‘ZDAVYERLOYIHA» DAVLAT ILMIY-LOYIHALASH INSTITUTI

NORQULOV MUSURMON NORBAYIVICH

**TOG‘ VA TOG‘OLDI YAYLOVLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH
YO‘LLARINI ISHLAB CHIQISH
(QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)**

06.01.10-«Yer tuzish, kadastr va yer monitoringi»

**QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent-2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/Qx642 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya «O'zdavyerloyiha» davlat-ilmiy loyihalash institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tdau.uz) va «ZiyoNet» axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz.) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Ruzmetov Maksud Ismoilovich
qishloq xo'jaligi fanlari doktori, katta ilmiy hodim

Rasmiy opponenlar:

Sadulla Avezbyaev
iqtisod fanlari doktori, professor

Nomozov Normamat Chorievich
Qishloq xo'jaligi falsafa fanlari doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat agrar universiteti huzuridagi PhD.05/04.03.2022.Qx.13.03 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik Ilmiy kengashning « 30 » 05 2023 yil soat 15⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100164, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy. Tel.: (+99871) 260-48-00, faks: (+99871) 260-38-60, e-mail: tuag_info@edu.uz

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat agrar universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (548606 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100164, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy. Tel.: (+99871) 260-48-00.

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil « 13 » 05 kuni tarqatildi.

(2023 yil « 13 » 05 dagi 1 raqamli reyestr bayonnomasi).



D.A.Qodirova

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik Ilmiy kengash raisi, b.f.d., dotsent

N.I.Shadiyeva

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik Ilmiy kengash ilmiy kotibi, b.f.d., katta ilmiy xodim

U.Norqulov

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, q.x.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori PhD dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda dunyo miqyosida qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar qariyb 4,7 milliard gektarni tashkil etadi, shundan qariyb 1,6 milliard gektari ekin maydonlari, qolgan uchdan ikki qismi (3,2 milliard gektarga yaqini) doimiy o'tloqlar va yaylovlardan iborat¹. BMTning Xalqaro Oziq-ovqat xavfziligi tashkiloti rasmiy ma'lumotlariga ko'ra, so'nggi yigirma yil ichida turli tabiiy-antropogen omillar ta'sirida doimiy o'tloqlar va yaylovlarning maydoni 6 foizga qisqargan. Dunyo miqyosida degradatsiyaga uchragan yaylovlarni qayta tiklashga qaratilgan turli agrotexnologiyalarni qo'llash usullari yetakchi o'rinlarni egallamoqda. Shu sababli yaylov yerlaridagi turli tabiiy-antropogen omillar ta'sirini oldini olish, yaylovlar mahsuldorligini tiklash va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyoda turli iqlim sharoitlarida tarqalgan tog' va tog'oldi yaylovlarning tabiiy-antropogen omillar ta'sirida o'zgarishini aniqlash, ularni saqlash, yaylovlar o'simlik dunyosini saqlash va yaylovlar ekologik barqarorligini tiklash hamda ulardan foydalanish samaradorligini oshirishga qaratilgan ustuvor yo'nalishlarda ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada, turli mintaqada joylashgan yaylov yerlarida turlicha yondashuvlar va mexanizmlarni ishlab chiqishga qaratilgan tadqiqotlarga alohida e'tibor berilmoqda. Ayniqsa, tog' va tog'oldi yaylov yerlarida alohida ilmiy yechimga ega bo'lgan tajribalar asosida yaylovlarda samarali foydalanishni tashkil etish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Respublikamizda yer resurslaridan oqilona va samarali foydalanish, yer tuzish, yer monitoringi va yaylov yerlarida geobotanik tadqiqotlarni tashkil etish, ayniqsa agrar sohada qishloq xo'jaligi yaylov yerlaridan samarali foydalanish yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida «yangi va foydalanishdan chiqqan 464 ming gektar maydonni o'zlashtirish, ilm-fan va innovatsiyaga asoslangan agroxizmatlar ko'rsatish tizimini takomillashtirish, agrosanoat korxonalarini xomashyo bilan ta'minlash va ishlab chiqarish hajmini 1,5 baravar oshirish» muhim strategik vazifalar sifatida belgilab berilgan. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda, jumladan, yerdan foydalanuvchilar faoliyatiga ilmiy asosda yondoshish orqali yaylov yerlarida hamda agrar soha barqarorligini va mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 21 may №538-son «Yaylovlar to'g'risida»gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17 iyun PF-5742-son «Qishloq xo'jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni, 2020 yil 28 fevral PQ-4575-son «O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasida belgilangan vazifalarni 2020 yilda amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida» va 2022 yil 10 iyun PQ-277-son

¹ <https://www.fao.org/food-agriculture-statistics/data-release/data-release-detail>. Land statistics and indicators. Global, regional and country trends, 2000-2020.

«Yerlar degradatsiyasiga qarshi kurashishning samarali tizimini yaratish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorlari hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 23 aprel 299-son «Ma'muriy hududiy birliklar chegarasini belgilash, yer resurslarini xatlovdan o'tkazish hamda yaylov va pichanzorlarda geobotanik tadqiqotlarni o'tkazish tartibini yanada takomillashtirish» to'g'risidagi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. «Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhitni muhofazasi» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Dunyoning turli mintaqalarida va mamalakatimizda qishloq xo'jalik yerlari, xususan yaylov yerlaridan samarali foydalanish bo'yicha bir qator ilmiy-tadqiqot ishlari respublika va xorijlik olimlar F.Lianlian, L.I.Kkaihui, M.A.Xuexi, L.I.Yaoming, D.Ramsey, Y.M.Maul, A.A.Varlamov, S.N.Volkov, Z.B.Novitskiy, N.A.Aimbetov, K.V.Papenov, S.A.Avezbyaev, A.S.Chertovitskiy, T.X.Farmanov, M.I.Ruzmetov, R.A.Turayev, G.T.Parpiyev, A.X.Muxtorov, Sh.K.Narbayev, N.A.Bobokulov, A.E.Tangirov, T.U.Raximova, T.F.Rajabov, T.T.Raximova, B.A.Adilov, H.Shomurodov, A.R.Rabbimov, S.Y.Yusupov, T.X.Mukimov, A.U.Umirzoqov, B.T.Shodiyev, M.M.Maxmudov, G.M.Nabiyeva, N.CH.Namozov, R.A.Murodov, O.O'.Davronov, X.K.Bag'bekov, B.B.Xakimov, K.M.Xaitova kabi olimlar tomonidan olib borilgan. Lekin, O'zbekistonning tog' va tog'oldi yaylov yerlarida geobotanik tadqiqotlar yuritish, degradatsiyaga uchragan yaylovlarni qayta tiklashga qaratilgan ilmiy-amaliy tadqiqotlar deyarli olib borilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti «O'zdavyerloyiha» davlat ilmiy-loyihalash instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga kiritilgan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 23 apreldagi 299-son «Ma'muriy hududiy birliklar chegarasini belgilash, yer resurslarini xatlovdan o'tkazish hamda yaylov va pichanzorlarda geobotanik tadqiqotlarni o'tkazish tartibini yanada takomillashtirish to'g'risida»gi qarori hamda BMT Taraqqiyot Dasturi-GEFning «Dunyo miqyosida muhim biologik xilma-xillik turlari uchun muhim bo'lgan tog'li mintaqalarda tabiiy resurslar va o'rmon xo'jaligidan barqaror foydalanish» loyihasi doirasida (2019-2021-yy.) bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi tog' va tog'oldi yaylov hududlarining geobotanik holatini aniqlash orqali yaylov yerlaridan samarali foydalanish yo'llarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Qashqadaryo viloyati Dehqonobod tumani tog' va tog'oldi yaylov hududlarining geobotanik holatini baholash hamda yaylovlarda kechayotgan degradatsiya jarayonlarini aniqlash;

togʻ va togʻoldi yaylovlarida birlamchi yaylov urugʻchilik maydonlarini tashkil etish orqali istiqbolli ozuqabop yaylov oʻsimliklarini aniqlash va degradatsiyagan uchragan maydonlarni qayta tiklash;

yaylovlarda chorva mollarini almashlab boqish tizimi sxemasini ishlab chiqish;

togʻ, togʻoldi yaylovlardan samarali foydalanishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Qashqadaryo viloyati Dehqonobod tumani togʻ va togʻoldi yaylov erlari tanlangan.

Tadqiqotning predmeti yaylov yerlarning geobotanik holati, yaylovlarda chorva mollarini almashlab boqish tizimini ishlab chiqish, ozuqabop yaylov oʻsimliklarini koʻpaytirish orqali yaylov yerlaridan samarali foydalanish hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotlar dala va laboratoriya sharoitlarida «Qishloq xoʻjaligi korxonalarida ichki yer tuzish», «Oʻzbekistonning tabiiy yaylov va pichanzorlarida geobotanik tadqiqotlar oʻtkazish boʻyicha uslubiy qoʻllanma», «Общесоюзная инструкция по проведению геоботанических обследований природных кормовых угодий и составлению крупномасштабных геоботанических карт» usullari va B.A.Dospexov uslubi asosida bajarilgan, shuningdek Microsoft Excel dasturi yordamida matematik-statistik tahlil qilingan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Qashqadaryo viloyati Dehqonobod tumani togʻ va togʻoldi yaylov pogʻonalari geobotanik holatida salbiy oʻzgarishlar roʻy berganligi, oʻsimliklar hosildorligi soʻnggi 30 yilda oʻrtacha 3,8 s/ga dan 2,9 s/ga ga (-0,9 s/ga) kamayganligi, 1 ta shartli mol boshi soniga toʻgʻri keladigan maydon ulushi esa 15,9 gektardan 20,4 gektarga (+4,5) koʻpayganligi asoslangan;

ilk bor Qashqadaryo viloyati Dehqonobod tumani togʻ va togʻoldi yaylov pogʻonalari hududida tabiiy va antropogen omillar taʼsirida degradatsiyaga uchragan maydonlar «kuchsiz», «oʻrtacha» va «kuchli» darajalarga ajratilgan hamda elektron raqamli xaritasi yaratilgan;

degradatsiyagan uchragan togʻ va togʻoldi yaylovlarini qayta tiklash uchun ozuqabop yaylov oʻsimlik turlaridan izenning (*Kochia prostrata* (L.) Srad). «Otavniy» va «Sahro» navlari ekish va koʻpaytirish istiqbolli ekanligi asoslangan;

yer tuzish loyihalari asosida istiqbolli izen oʻsimligini sunʼiy agrofitotsenoz tashkil etish orqali yiliga oʻrtacha 3 barobardan qoʻshimcha turli darajada degradatsiyaga uchragan yaylov maydonlari qayta tiklanishi mumkinligi isbotlangan.

degradatsiyaga uchragan togʻ va togʻoldi yaylovlari ozuqabop izen oʻsimligi bilan qayta tiklangandan soʻng, 1-2 yillari noyabr-fevral oylarida, 3-yildan keyin chorva mollarini almashlab boqish mumkinligi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

«Oʻzbekistonning tabiiy yaylov va pichanzorlarida geobotanik tadqiqotlar oʻtkazish boʻyicha uslubiy qoʻllanma»si ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan;

«Tabiiy yaylovlar oʻsimliklarining monitoringini yuritish ishlarini amalga oshirish boʻyicha qoʻllanma» ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan;

Qashqadaryo viloyati Dehqonobod tumani togʻ va togʻoldi yaylovlarining massivlar uchun 1:25 000 masshtabli elektron raqamli «Geobotanik xarita»si yaratilgan, shuningdek «Yaylovlarning suv bilan taʼminlanganlik xaritasi» ham tuzilgan va amaliyotga joriy etilgan.

Togʻ va togʻ oldi yaylov pogʻonalari uchun jami 7 ta yaylov almashish tartibi loyihasi ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan.

Qashqadaryo viloyati Dehqonobod oʻrmon xoʻjaligida 2,0 gektar maydonda istiqbolli yaylov oʻsimliklari navlarining birlamchi urugʻchiligi pilot uchastkasi tashkil qilingan va amaliyotga joriy etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining aniqligi dala-tajriba, laboratoriya, kameral, kartografik, solishtirma uslublarda bajarilganligi, ularni statistik tahlil qilinganligi, GAT texnologiyalaridan foydalanilganligi, elektron raqamli xaritalarning yaratilganligi, olingan natijalarni ilmiy asoslanganligi, amaliyotda isbotlanganligi hamda oxirgi nashr etilgan uslubiy qoʻllanmalar asosida bajarilganligi, Respublika va xalqaro miqyosda oʻtkazilgan ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokama qilinganligi nufuzli xorijiy va Respublika ilmiy jurnallarida chop etilganligi hamda natijalarning amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati Qashqadaryo viloyati Dehqonobod tumani togʻ va togʻoldi yaylovlarida oʻsimliklar hosildorligi soʻnggi 30 yilda kamayganligi, 1 ta shartli mol boshi soniga toʻgʻri keladigan maydon ulushi ortganligi, tabiiy va antropogen taʼsirlar tufayli degradatsiyaga uchragan maydonlar «kuchsiz», «oʻrtacha» va «kuchli» darajalarga ajratilganligi, ozuqabop yaylov izenning (*Kochia prostrata (L.) Srad.*) «Otavniy» va «Sahro» navlarini ekish va koʻpaytirishda istiqbolli ekanligi, izen oʻsimligini yer tuzish loyihalari asosida sunʼiy agrofitotsenoz tashkil etish orqali yiliga oʻrtacha 3 barobardan qoʻshimcha yaylov maydonlari qayta tiklanishi mumkinligi isbotlanganligi, qayta tiklangan yaylovlarda 1-2 yillari noyabr-fevral oylarida, 3-yildan keyin chorva mollarini almashlab boqish mumkinligi asoslanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, ishlab chiqilgan tabiiy yaylov va pichanzorlarda geobotanik tadqiqotlar va monitoring oʻtkazish boʻyicha uslubiy qoʻllanmalar, togʻ va togʻoldi yaylovlari uchun tuzilgan 1:25 000 masshtabli va 1:100 000 masshtabli izen oʻsimligini joylashtirish elektron raqamli xaritalari, 1:10 000 masshtabli yaylov almashish tartibi yer tuzish loyihalari shuningdek, istiqbolli yaylov oʻsimliklarining birlamchi urugʻchiligi pilot uchastkasi yaylov yerlarini qayta tiklash va ulardan samarali foydalanish uchun xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Togʻ va togʻoldi yaylovlaridan samarali foydalanish yoʻllarini ishlab chiqish boʻyicha olingan ilmiy natijalar asosida:

«O‘zbekistonning tabiiy yaylov va pichanzorlarida geobotanik tadqiqotlar o‘tkazish bo‘yicha uslubiy qo‘llanma»si ishlab chiqilgan va respublika hududidagi 21,1 mln gektar yaylovlarida geobotanik tadqiqotlarni o‘tkazish uchun amaliyotga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligining 2022-yil 25-oktabrdagi 04/30-04/7776-son ma‘lumotnomasi). Natijada, respublikaning yaylov yerlari kadastrining yuritilishi, yaylov yerlarning meyoriy qiymatini aniqlash va yaylovlardan samarali foydalanishda ilmiy-uslubiy qo‘llanma sifatida xizmat qilgan;

«Tabiiy yaylovlar o‘simliklarining monitoringini yuritish ishlarini amalga oshirish bo‘yicha qo‘llanma» ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligining 2022-yil 25-oktabrdagi 04/30-04/7776-son ma‘lumotnomasi). Natijada, respublikadagi tabiiy yaylovlar to‘g‘risidagi miqdoriy va sifatga doir ma‘lumotlar haqida axborot to‘plash, ularning holatini baholash va prognoz qilish, salbiy jarayonlarni aniqlash hamda bartaraf etish monitoringini yuritishda hamda ulardan samarali foydalanishda ilmiy-uslubiy qo‘llanma bo‘lib xizmat qilgan.

O‘zbekiston Respublikasi tog‘ va tog‘oldi yaylovlarining massivlar uchun 1:25 000 va tumanlar hududi uchun 1:100 000 masshtabli elektron raqamli «Geobotanik xarita»lari yaratilgan va amaliyotga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligining 2022-yil 25-oktabrdagi 04/30-04/7776-son ma‘lumotnomasi). Natijada, respublikadagi yaylov yerlarining aniq hisobini yuritish, degaradatsiyaga uchragan yaylovlar maydonini aniqlash, birlamchi yaylov urug‘chilik maydonlarini tashkil qilish va chorva mollarini almashlab boqish imkonini bergan hamda «Yaylov yerlari monitoring tizimi» portalini ma‘lumotlar bilan ta‘minlashda asos bo‘lib xizmat qilgan;

Qashqadaryo viloyati Dehqonobod tumani tog‘ va tog‘oldi yaylovlarining 1:25 000 masshtabli elektron raqamli «Yaylovlarning suv bilan ta‘minlanganlik xaritasi» tuzilgan va amaliyotga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligining 2022-yil 25-oktabrdagi 04/30-04/7776-son ma‘lumotnomasi). Natijada, yaylov yerlaridan foydalanuvchilar uchun chorva mollarini rejali joylashtirish va ularni boqish imkonini bergan.

izenning (*Kochia prostrata* (L.) Srad.) «Otavniy» va «Sahro», tereskenning (*Ceratoides eversmanniana* Botsch, et Ikonn) «To‘lqin», erkak o‘tning (*Agropyron desertorum* Gaertn.) «Ishonch» va shuvoqning (*Artemisia diffusa*) «Oq shuvoq» navlari Qashqadaryo viloyati Dehqonobod o‘rmon xo‘jaligida 2,0 gektar maydonda istiqbolli navlarning birlamchi urug‘chiligi pilot uchastkasi tashkil qilingan va amaliyotga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligining 2022-yil 25-oktabrdagi 04/30-04/7776-son ma‘lumotnomasi). Natijada, degradatsiyaga uchragan yaylov yerlarini qayta tiklashga, ozuqabop o‘simliklarni ko‘paytirishga va ekinzorlarni barpo qilishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari har yili «O‘zdavyerloyiha» DILIning ilmiy-texnik kengashida ko‘rib chiqilgan va ijobiy baholangan, jumladan 6 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma‘ruza qilingan. Dissertatsiya ishi institutning ilmiy-texnik kengashida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 14 ta ilmiy ish, shundan 2 ta uslubiy qo'llanma, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 3 ta maqola, jumladan 2 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan tashkil topgan. Dissertatsiyaning asosiy hajmi 119 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqot maqsadi va vazifalari hamda obyekt va predmetlari shakllantirilib, tadqiqotning O'zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va tadqiqotning amaliy natijalari keltirilgan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga tadbiiq etish ro'yxati keltirilgan, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**O'zbekistonda yaylovlarning holati va undan foydalanishni tashkil etishning nazariy asoslari**» deb nomlangan birinchi bobi uch qismga bo'lingan bo'lib, birinchi qismi 1.1-§.-«O'zbekiston Respublikasi tog', tog'oldi va cho'l yaylovlarida amalga oshirilgan tadqiqotlar xususida» deb nomlangan bo'lib, unda respublikada qishloq xo'jaligi yaylov yerlaridan foydalanish hamda monitoringini yuritish bo'yicha olimlar tomonidan amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot ishlari, qo'lga kiritilgan natijalar to'g'risida qisqacha adabiyotlar sharhi keltirilgan.


Ikkinchi qismi 1.2-§.-«Yaylovlardan samarali foydalanishga qaratilgan xorijiy tajribalar» deb nomlanib, rivojlangan mamlakatlarda yaylov yerlardan foydalanish sohasidagi munosabatlar, jumladan yaylov yerlaridan samarali foydalanish bo'yicha amalga oshirilgan bir qator ishlar to'g'risida qisqacha tahliliy ma'lumotlar keltirilgan. Rossiya, AQSH, Xitoy, Mo'g'uliston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston kabi davlatlar yaylov yerlaridan foydalanishda zamonaviy uslublarga asoslangan holda yuritilishi kabi masalalar mushohada qilingan.

Uchinchi qismi 1.3-§.-«O'zbekiston Respublikasi yaylov yer fondi to'g'risida umumiy ma'lumotlar» deb nomlanib, respublikamizda yaylov yerlar fondidan foydalanishni boshqarish va nazorat qilish, yer munosabatlarini takomillashtirish, Respublikamizda yaylov yerlardan foydalanish holati bo'yicha ma'lumotlar natijalari tahlili asosli materiallar bilan ochib berilgan.

Dissertatsiyaning «**Tadqiqot obyekti va uslublari**» deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot obyektining tavsifi, yaylov yerlar maydoni bo'yicha ma'lumot, tadqiqot uslublari, olib borilgan geobotanik ishlar tahlili bo'yicha ishlar keltirilgan.

Biz tomondan 2019-2022 yillarda Qashqadaryo viloyati Dehqonobod tumani o'rmon xo'jaligi hududida ozuqabop yaylov o'simliklarini yetishtirish bo'yicha

tajribalar olib borildi. Tashkil etilgan pilot uchastkadagi tajriba sxemasi 1-rasmda keltirilgan.



1-rasm. Ozuqabop yaylov o‘simliklarini yetishtirish tajriba sxemasi.

1-variant – Nazorat;

2-variant – Erkak o‘t (Jitnyak) – (*Agropyron desertorum Gaertn.*) «Ishonch» navi;

3-variant – Izen – (*Kochia prostrata (L.) Srad.*) «Otavniy» va «Sahro» navlari;

4-variant – Teresken – (*Ceratoides eversmanniana Botsch, et Ikonn*) «To‘lqin» navi;

5-variant – Shuvoq – (*Artemisia diffusa*) «Oq shuvoq» navi;

6-variant – Aralash;

Har bir variant maydoni: $25 \times 8 = 200 \text{ m}^2$ dan iborat.

Dissertatsiyaning «Qashqadaryo viloyati Dehqonobod tumani yaylovlarning holati, pilot uchastkalar tashkil etish orqali istiqbolli ozuqabop yaylov o‘simliklarini aniqlash» deb nomlangan uchinchi bobida Qashqadaryo viloyati Dehqonobod tumani yaylovlarning geobotanik bahosi, tog‘ va tog‘oldi yaylovlardagi degradatsiya jarayonlari, degradatsiyaga uchragan tog‘ va tog‘oldi yaylovlarda pilot uchastkalar tashkil etish va istiqbolli ozuqabop yaylov o‘simliklarini yetishtirish bo‘yicha tajribalar tahlili bo‘yicha ishlar keltirilgan.

Hududning 1987-yilda o‘tkazilgan geobotanik tadqiqotlarida 78 ta yaylov o‘simlik turi qayd qilingan. 2020-yilga kelib 65 ta o‘simlik turlari qayd qilinib, 13 ta o‘simliklar turi uchramadi. Yaylov o‘simliklari o‘rtacha hosildorligi 1987-yilda 3,8 s/ga ni tashkil etgan bo‘lsa, 2020-yilda 2,9 s/ga ni yoki 0,9 s/ga kamayganligi aniqlandi. Chorva mollari yemaydigan o‘simliklar ulushi tegishli ravishda 10-12% dan 18-20% (o‘rtacha 19%)gacha ko‘paygan.

Tadqiqotlar olib borilgan Qashqadaryo viloyati Dehqonobod tumanining umumiy yaylovlar maydoni 216 857 gektar (54,2%)ni tashkil etadi.

O‘rganilgan yaylovlarning o‘simliklar bilan qoplanganlik darajasi va hosildorligini baholash ishlari B.A.Dospexov tenglamasi va Microsoft Excel

dasturi yordamida matematik-statistik tahlil qilindi. Qashqadaryo viloyati Dehqonobod tumani hududidagi togʻ va togʻoldi yaylovlari holatiga koʻra «oʻrtacha» va «past» deb baholandi.

Oʻrganilgan yaylovlar matematik-statistik tahlillariga koʻra, eng minimal oʻrtacha xatolik koʻrsatkichi tumanning «Bozortepa» hududi yaylovlarida 0,01% ni, eng maksimal koʻrsatkichi Oybek nomli hudud yaylovlarida 0,07% ni tashkil etadi. Huddi shuningdek, oʻsimliklar bilan qoplanganligi darajasi 0,336 dan 0,95 foiz boʻlgan oraliqni tashkil etadi. Demak, oʻrtacha xatolik koʻrsatkichi <1 dan kam deb izohlanadi.

Qashqadaryo viloyati Dehqonobod tumanida tashkil etilgan pilot uchastkada olib borilgan 4 yillik (2019-2022 yy.) tajribalarda ozuqabop yaylov oʻsimliklarining xoʻjalik koʻrsatkichlari (yashovchanligi va hosildorlik darajasi) boʻyicha izen oʻsimligidan boshqa tanlangan jitnyak (erkak oʻt), shuvoq va teresken yaylov oʻsimliklariga nisbatan har tomonlama ijobiy natijalar kuzatildi.

Urugʻchilik pilot uchastka maydonida ekilgan jitnyak (erkak oʻt) oʻsimligida eng kam koʻrsatkichlar qayd qilindi. Yaʼni, 1-yilda (2019 y.) jitnyak (erkak oʻt) oʻsimligi balandligi oʻrtacha 15-30 sm ni va hosildorlik koʻrsatkichi oʻrtacha 0,23 s/ga ni; mos ravishda 2-yilda (2020-y.) 35-40 sm va 1,1 s/ga ni, 3-yilda (2021-y.) 30-50 sm va 1,2 s/ga ni, 4-yilda (2022-y.) 40-50 sm va 1,3 s/ga ni tashkil etib, yildan-yilga ortib borgan boʻlsada, lekin mazkur hudud yaylov oʻsimliklari xoʻjalik koʻrsatkichlari nuqtai nazaridan past hosilli ekanligi aniqlandi.

Eng yuqori koʻrsatkichlar izen oʻsimligida kuzatildi, yaʼni 1-yilda (2019 y.) oʻsimlik balandligi oʻrtacha 35-90 sm ni va hosildorlik koʻrsatkichi oʻrtacha 1,38 s/ga ni; mos ravishda 2-yilda (2020 y.) 40-100 sm va 2,9 s/ga ni, 3-yilda (2021 y.) 45-150 sm va 4,8 s/ga ni, 4-yilda (2022 y.) 50-180 sm va 8,8 s/ga ni tashkil etib, oʻrganilgan togʻ va togʻoldi hududlari tabiiy iqlim sharoiti uchun istiqbolli yaylov oʻsimligi ekanligi aniqlandi. Asosiysi, urugʻchilik pilot uchastka maydonida ekilgan izen oʻsimligi 4 yilda oʻrtacha 8,1 s/ga (506%)ga ortganligini koʻrsatadi.

Umumiy qilib aytganda, shuvoq va teresken yaylov oʻsimliklari xoʻjalik koʻrsatkichlari (yashovchanligi va hosildorlik darajasi) boʻyicha oraliq oʻrinlarni egallaydi.

Demak, izen oʻsimligining chorva mollari tomonidan barcha mavsumlarda yeyilishini va ozuqaviyligining yuqoriligini inobatga oladigan boʻlsak, togʻoldi yaylovlarining dengiz sathidan 600-900 metr hamda togʻ yaylovlarining dengiz sathidan 1000 metrdan baland boʻlgan mintaqalardagi degradatsiyaga uchragan yaylovlarni qayta tiklash uchun bu oʻsimlik istiqbolli deb hisoblanadi.

Dissertatsiyaning «**Togʻ va togʻoldi yaylovlaridan samarali foydalanishga qaratilgan yer tuzish loyihalash ishlarini ishlab chiqish**» deb nomlangan toʻrtinchi bobida togʻ va togʻoldi yaylovlarni qayta tiklash va yer tuzish loyihalarini ishlab chiqish, turli darajada degradatsiyaga uchragan yaylovlarda almashlab foydalanishni tashkil etish, yaylovlardan samarali foydalanish istiqbollari boʻyicha masalalari yoritilgan.

Olib borilgan tadqiqotlarda 2021-2022 yillarda Qashqadaryo viloyati Dehqonobod tumanining dengiz sathidan **600-900 metr baland boʻlgan hududlarida** turli darajada degradatsiyaga uchragan yaylov maydonlarida tashkil

etilgan 0,5 gektarlik jami 2,0 gektarlik pilot uchastkalarda amalda **mavjud bo'lgan yaylov o'simliklari** (degradatsiyaga uchramagan maydonda) va **sun'iy agrofitorosenoz usulida yaratilgan ozuqabop izen o'simligining** xo'jalik ko'rsatkichlari hisoblab chiqildi.

Bunda 2022 yil holatiga mavjud yaylov o'simliklari xo'jalik ko'rsatkichlari quyidagicha:

Degradatsiyaga uchramagan maydonda (0,5 gektarlik pilot uchastkada) mavjud yaylov o'simliklarining amaldagi hosildorligi 2,9 s/ga ni, shundan amalda boqilayotgan 67 563,5 gektar maydonda chorva mollar soni 21 795 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich 1 ta shartli mol bosh soni uchun talab etiladigan yaylovlar maydoni 3,1 gektarga to'g'ri kelishi aniqlandi.

Kuchsiz degradatsiyaga uchragan maydonda (0,5 gektarlik pilot uchastkada) mavjud yaylov o'simliklarining amaldagi hosildorligi 1,8 s/ga ni, shundan amalda 2 790 gektar maydonda boqilayotgan chorva mollar soni 558 tani tashkil etib, ushbu ko'rsatkich 1 ta shartli mol bosh soni uchun talab etiladigan yaylovlar maydoni 5,0 gektarga to'g'ri kelishi aniqlandi.

O'rtacha degradatsiyaga uchragan maydonda (0,5 gektarlik pilot uchastkada) mavjud yaylov o'simliklarining amaldagi hosildorligi 1,2 s/ga ni, shundan amalda 6 425 gektar maydonda boqilayotgan chorva mollar soni 857 tani tashkil etib, ushbu ko'rsatkich 1 ta shartli mol bosh soni uchun talab etiladigan yaylovlar maydoni 7,5 gektarga to'g'ri kelishi aniqlandi.

Kuchli degradatsiyaga uchragan maydonda (0,5 gektarlik pilot uchastkada) mavjud yaylov o'simliklarining amaldagi hosildorligi 1,2 s/ga ni, shundan amalda 27 200 gektar maydonda boqilayotgan chorva mollar soni 2720 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich 1 ta shartli mol bosh soni uchun talab etiladigan yaylovlar maydoni 10,0 gektarga to'g'ri kelishi aniqlandi.

2022 yil holatiga sun'iy agrofitorosenoz tashkil qilingandan keyingi izen o'simligining xo'jalik ko'rsatkichlari quyidagicha:

Dengiz sathidan 600-900 metr baland bo'lgan hududlardagi turli darajada (kuchsiz, o'rtacha va kuchli) degradatsiyaga uchragan **jami 36 415 gektar maydonda mavjud yaylov o'simliklarining amaldagi o'rtacha hosildorligi 1,3 s/ga ni**, shundan amalda boqilayotgan chorva mollar soni **o'rtacha 1 378 tani** tashkil etib, bu ko'rsatkich 1 ta shartli mol bosh soni uchun talab etiladigan yaylovlar maydoni **o'rtacha 7,5 gektarga** to'g'ri kelishi aniqlandi.

Agar jami 36 415 gektar maydonda izen o'simligi yetishtirilsa uning o'rtacha hosildorlik ko'rsatkichi 3,1 s/ga ni, shundan tavsiya etilayotgan chorva mollar soni o'rtacha 11 938 tani tashkil etib, qo'shimcha boqiladigan chorva mollari soni o'rtacha 7 803 taga yetkazishga, ushbu ko'rsatkichlar yaylovlarning tiklangandan so'ng 1 ta shartli mol bosh soni uchun talab etiladigan yaylovlar maydonini o'rtacha 3,0 gektarga, ya'ni 7,5 gektarga kamaytirishga erishish mumkinligi aniqlandi.

Demak, tahlillar shuni ko'rsatadiki, dengiz sathidan **600-900 metr baland bo'lgan hududlarda izenning o'rtacha hosildorligi degradatsiyaga uchramagan pilot uchastkada – 3,7 s/ga ni**, «kuchsiz» darajada degradatsiyaga uchragan maydonda – 3,1 s/ga, «o'rtacha» darajada

degradatsiyaga uchragan maydonda – 3,1 s/ga va «kuchli» darajada degradatsiyaga uchragan maydonda 2,9 s/ga tashkil etib, mos ravishda 0,8; 1,3; 1,9 va 2,0 s/ga qo‘shimcha hosildorlik olishga erishildi.

Sun’iy agrofittosenoz tashkil qilish orqali «kuchsiz» darajada degradatsiyaga uchragan maydonda – 961 (+403), «o‘rtacha» darajada degradatsiyaga uchragan maydonda – 2213 bosh (+1356) «kuchli» darajada degradatsiyaga uchragan maydonda – 8764 bosh (+6044) chorva mollari boqish mumkinligi isbotlandi. Xuddi shunga mos ravishda 1 ta shartli mol bosh soni uchun talab etiladigan maydonlar 2,9 (-2,1); 2,9 (-4,6) va 3,1 (-6,9) gektarga kamayishiga erishish mumkinligi ham isbotlandi.

Biz tomondan olib borilgan tadqiqotlar jarayonida Qashqadaryo viloyati Dehqonobod tumanining dengiz sathidan **1000 metrdan baland bo‘lgan hududlarida** ham turli darajada degradatsiyaga uchragan yaylov maydonlarida tashkil etilgan 0,5 gektarlik jami 2,0 gektarlik pilot uchastkalarda amalda mavjud bo‘lgan tabiiy yaylov o‘simliklari (degradatsiyaga uchramagan maydonda) va sun’iy agrofittosenoz usulida yaratilgan ozuqabop izen o‘simligining xo‘jalik ko‘rsatkichlari hisoblab chiqildi.

Bunda 2022 yil holatiga mavjud yaylov o‘simliklari xo‘jalik ko‘rsatkichlari quyidagicha:

Degradatsiyaga uchramagan maydonda (0,5 gektarlik pilot uchastkada) mavjud yaylov o‘simliklarining amaldagi hosildorligi 3,5 s/ga ni, shundan amalda boqilayotgan 85 748,0 gektar maydonda chorva mollar soni 27 661 tani tashkil etib, bu ko‘rsatkich 1 ta shartli mol bosh soni uchun talab etiladigan yaylovlar maydoni 2,6 gektarga to‘g‘ri kelishi aniqlandi.

Kuchsiz degradatsiyaga uchragan maydonda (0,5 gektarlik pilot uchastkada) mavjud yaylov o‘simliklarining amaldagi hosildorligi 1,9 s/ga ni, shundan amalda 18 251 gektar maydonda boqilayotgan chorva mollar soni 3 650 tani tashkil etib, ushbu ko‘rsatkich 1 ta shartli mol bosh soni uchun talab etiladigan yaylovlar maydoni 4,7 gektarga to‘g‘ri kelishi aniqlandi.

O‘rtacha degradatsiyaga uchragan maydonda (0,5 gektarlik pilot uchastkada) mavjud yaylov o‘simliklarining amaldagi hosildorligi 1,3 s/ga ni, shundan amalda 6 825 gektar maydonda boqilayotgan chorva mollar soni 910 tani tashkil etib, ushbu ko‘rsatkich 1 ta shartli mol bosh soni uchun talab etiladigan yaylovlar maydoni 6,9 gektarga to‘g‘ri kelishi aniqlandi.

Kuchli degradatsiyaga uchragan maydonda (0,5 gektarlik pilot uchastkada) mavjud yaylov o‘simliklarining amaldagi hosildorligi 1,0 s/ga ni, shundan amalda 2 055 gektar maydonda boqilayotgan chorva mollar soni 206 tani tashkil etib, bu ko‘rsatkich 1 ta shartli mol bosh soni uchun talab etiladigan yaylovlar maydoni 9,0 gektarga to‘g‘ri kelishi aniqlandi.

2022 yil holatiga sun’iy agrofittosenoz tashkil qilingandan keyingi izen o‘simligining xo‘jalik ko‘rsatkichlari quyidagicha:

O‘rganilgan tumanning dengiz sathidan 1000 metrdan baland bo‘lgan hududlardagi turli darajada (kuchsiz, o‘rtacha va kuchli) degradatsiyaga uchragan **jami 27 131 gektar maydonda mavjud yaylov o‘simliklarining amaldagi o‘rtacha hosildorligi 1,1 s/ga ni, shundan amalda boqilayotgan chorva mollar**

bo'yicha izen o'simligi yordamida qayta tiklangan yaylovlarda uchinchi yili hosildorlik o'rtacha 3,3 s/ga tashkil etadi, mavjud yaylovning 85% yedirilishi tavsiya etiladi. Qolgan 15% ob-havo sharoitlari yomonlashgan taqdirda sug'urta jamg'armasi sifatida qoldiriladi.

Bu borada biz tomondan olib borilgan tajribalarda ham mazkur tog' yaylov pog'onasi hududida yaylovlardan almashlab boqish tavsiya etilgan, ya'ni qayta tiklangan maydoning 27 131 gektarligini inobatga olsak, shunda uning 15 foizi (4069 gektar maydoni) sug'urta sifatida qoldirildi va asosiy 85 foizini (23 061 gektar) tashkil etgan maydonda 7 610 130 kg ni yoki 76 101 sentner quruq xashak hosildorlik mavjudligi aniqlandi. Demak, bir bosh qo'y kuniga 2,5 kg xashak iste'mol qilganda, yoz-kuz mavsumida o'rtacha 138 kun davomida bir bosh qo'ygacha 345 kg yaylov ozuqasi kerak bo'ladi.

Umumiy hisob-kitoblarga ko'ra, bahor-kuz mavsumida 23 061 gektar yaylovda 7 610 130 kg xashak yetishtirilishini inobatga olsak, mazkur ko'rsatkich tog' yaylov pog'onasining qayta tiklangan jami 27 131 gektar yaylov maydonida 22 058 bosh qo'ylarni boqish imkoniyati yaratiladi.

Tog' yaylov pag'onasi almashlab boqish rejasi

Ushbu hududda dengiz sathidan 1 000 metr dan baland hududda joylashgan tog' yaylov pog'onasida degradatsiyaga uchragan maydon jami 6 704 gektarni tashkil qiladi. Mazkur maydon birligidan kelib chiqqan holda biz tomondan qishloq xo'jaligi korxonalarida ichki yer tuzish loyihalash nuqtai nazaridan yondoshilib 3 ta alohida loyihaga ajratildi. Bu jarayonda, 1-loyiha 2 270 gektarni, 2-loyiha 2 200 gektarni va nihoyat, 3-loyiha 2 234 gektarni tashkil etdi. Umumiy qilib aytganda, yaylov almashlab boqish jarayonida chorva mollari har bir alohida uchastkada 46 kundan boqiladi, undan keyin navbat bilan 2 uchastkaga o'tkaziladi va yana 46 kundan so'ng 3 uchastkaga o'tkaziladi. Natijada, jami chorva almashlab boqish kuni 138 kunni tashkil etadi (1-jadval).

1-jadval

Tog' yaylov pog'onasi (dengiz sathidan 1000 metr dan baland)da yaylov almashish tartibi

Foydalanish yili	Yaylov almashish uchastkalari			
	1- dalali boqish	2 - dalali boqish	3 - dalali boqish	Kun
1	16.05 - 30.06	1.07 - 15.08	17.08 - 30.08	138
2	17.08 - 30.08	16.05 - 30.06	1.07 - 15.08	
3	1.07 - 15.08	17.08 - 30.08	16.05 - 30.06	

Tog'oldi yaylov pag'onasining ushbu turida chorva mollari faqat 9 oy davomida (mart-noyabr) boqiladi. Ilmiy manbalarda keltirilganidek, bu davrda har bir bosh qo'y yaylov yem-xashagini kuniga o'rtacha 2,5 kg iste'mol qiladi, mavsumlar bo'yicha izen o'simligi yordamida qayta tiklangan yaylovlarda uchinchi yili hosildorlik o'rtacha 3,0 s/ga tashkil etdi, mavjud yaylovning 85% yedirilishi tavsiya etiladi. Qolgan 15 % ob-havo sharoitlari yomonlashgan taqdirda sug'urta jamg'armasi sifatida qoldiriladi.

Bu borada biz tomondan olib borilgan tajribalarda ham mazkur tog'oldi yaylov pog'onasi hududida yaylovlardan almashlab boqish tavsiya etilgan, ya'ni

